(3). Yo‘ldashev, S.I. (2022). Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy o‘quv jarayonida ahamiyati va o‘rni. Uslubiy qo ‘llanma, T., O‘zMU.

(4). D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim. Uslubiy qo‘llanma, Toshkent, OOO “Complex Print”, 2021, 126 bet.

(5). “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.145/ https://lex.uz/

(6). Mansurov, T. (2024). Ta’limning formal, noformal va informal turlarining bilim olish jarayonidagi o‘ziga xos afzalliklari. “Педагогическая акмеология”, международный научно-методический журнал, 9(17).

(7). Мусаханова, Г. (2020). Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида. Экономика и инновационные технологии, (6), 229–235-betlar.

(8). Andriichuk T., Shostak I., Indrika R., Botuzova Y., Donii N. (2024). Training teachers to work in the conditions of digital transformation of education. AD ALTA. Journal of Interdisciplinary Research, (14), 194–198 p.

(9). Ma’murova Malohat Mansur qizi. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari pedagogik muammo sifatida. Международный научный журнал, № 8 (100), часть 1, «Новости образования, исследование в XXI веке», март, 2023.

(10). Xolmurodov, B. (2022). Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalar fanini o‘qitishning interfaol metodlari: “keys-stadi” metodi, Buxoro davlat Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

(11). Xolmurodov, B. (2022). “Matematika” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda kahoot platformasidan foydalanish. Buxoro davlat Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

Xurramova Sanobar Mahmatmurodovna (Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;
e-mail: xurramovasanobar98@gmail.com)

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNING SHAKLLANGANLIK MEZONLARINING BA’ZI JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda talabalarda tanqidiy tafakkurning shakllanganlik mezonlarini aniqlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari, filkrlashning yangilik va asosiy namoyon bo‘lish shakllari kundalik o‘quv-tarbiyaviy muammolarning nostandart yechimlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari hamda muammolarni birgalikda hal qilishning mazmun-mohiyati tanqidiy fikrlash orqali yoritilib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *talaba, tanqidiy tafakkur, pedagogika, ta’lim, metod, zamonaviy, talab, shakllanganlik, mezon, echim, tarbiya, pedagogik texnologiya, ko‘nikma, bilim, kengaytirish, manba, ma’lumot, samaradorlik.*

Хуррамова Санобар Махматмуродовна (преподаватель Термезского государственного педагогического института; xurramovasanobar98@gmail.com)

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ У СТУДЕНТОВ :НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. *В статье освещаются возможности использования современных педагогических технологий в определении критериев сформированности критического мышления у современных учащихся, инновационных и основных форм проявления мышления, нестандартных решений повседневных образовательных задач, технологий развития критического мышления, сущности совместного решения проблем посредством критического мышления.*

Ключевые слова: *студент, критическое мышление, педагогика, образование, метод, современный, спрос, формирование, критерий, решение, воспитание, педагогическая технология, навык, знание, расширение, источник, информация, эффективность.*

Khurramova Sanobar Mahmatmurodovna (Teacher of Termiz State Pedagogical Institute;
e-mail: xurramovasanobar98@gmail.com)

SOME ASPECTS OF THE CRITERIA FOR THE FORMATION OF CRITICAL THINKING IN STUDENTS

Annotation. *The article highlights the possibilities of using modern pedagogical technologies in determining the criteria for the formation of critical thinking in students today, the innovative and main forms of manifestation of thinking, non-standard solutions to everyday educational problems, technologies for developing critical thinking, and the essence of joint problem solving through critical thinking.*

Key words: *student, critical thinking, pedagogy, education, method, modern, demand, formation, criterion, solution, upbringing, pedagogical technology, skill, knowledge, expansion, source, information, efficiency.*

Kirish. Bugungi kunda talabalarda tanqidiy tafakkurning shakllanganlik mezonlarini aniqlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat talabalarda keng fikrlashni, balki ta'lim jarayonida ham ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'l ochib beradi.

Pedagogik texnologiya o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, tarbiyaviy vositalaming maxsus yig'indisi va joylashuvini belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat [1]. Pedagogik texnologiyadan foydalanish natijasida talabalarda tanqidiy filkrlashning yangilik va asosiy namoyon bo'lish shakllari kundalik o'quv-tarbiyaviy muammolarning nostandart yechimlari, pedagogik ta'sir usullarining metodik va nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilishi, ixtiro etilishi va takomillashuvi hamda ulardan samarali foydalanishda ko'rinadi.

Yangi ta'lim tizimi mazmuniga o'tmishning qimmatbaho ma'naviy qadriyatlarini kiritish yoki taqiqlangan ba'zi birlarini qayta tiklashdan maqsad o'tmish oldida egilish emas, balki unga tayanib, ijodiy foydalangan holda rivojlanishning yangi pog'onasiga chiqish hamda tanqidiy fikrlashni yanada rivojlantrish demakdir.

Talabalarda tanqidiy tafakkurning shakllanganlik mezonlari [5]:

1. Ma'lumotlarni mustaqil ravishda qiyosiy tahlil qila oladi.
2. Vaziyatga nisbatan shaxsiy pozitsiyasiga ega.
3. O'ziga va atrofidagilarga nisbatan tanqidiy munosabat bildira oladi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P.Bespalko "... pedagogik texnologiya – amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning loyihasidir", deyish bilan quyidagi ta'rifni beradi: "Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan talaba shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir".

Bu ta'rifdan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

–pedagogik texnologiya talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda hamda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;

– texnologiyani amalga oshirish o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;

– yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

Rus olimasi N.V.Kuzmina "pedagogik tizim o'zida ta'lim va tarbiya maqsadiga bo'ysundirilgan o'zaro bog'lik tarkibli elementlardan tashkil topishini uqtiradi" [2].

Bir guruh rus olimlari "pedagogik texnologiyalar obyektiv jarayon va u yangicha sifatiy muammolarni yechish uchun ta'limni evolusion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri" deb qaraydilar. Pedagogik texnologiya o'quv jarayoniga yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir.

O'zbekistonlik olim N.Sayidahmedov fikricha: "Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida talabalarga ta'sir ko'rsatish va ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir" [2].

Hozirgi tez o'zgarayotgan ijtimoiy, axborot va texnologik sharoitlarda davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'lim rivojisiz tasavvur etish qiyin. Shu nuqtayi nazardan, oliy o'quv yurtlaridagi talabalarda tanqidiy fikrlashni hamda har tomonlama bilimli, mustaqil, mantiqiy fikrlovchi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega yetuk kadrlar qilib tayyorlash zamon talabidir. Bu esa o'tilayotgan nazariy va amaliy darslarda pedagogik va axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, shakl va vositalarni, pedagogik jarayonda qanday yondoshuvlar borligini mukammal o'rganishni taqozo etadi. Hozirda ta'lim-tarbiyaga, asosan, an'anaviy va noan'anaviy (zamonaviy – tizimli, texnologik, tadqiqiy-ijodiy) yondashuvlar mavjud.

Tatbiq qilishga qaratilgan savollar o'qish jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantiqiy muammolarni yechish va chuqur o'rganish uchun imkoniyat beradi. Tahlil etishga qaratilgan savollar talabalardan u yoki bu voqeaning ahamiyati yetarli darajada yaxshi yoritilganmi-yo'qmi degan savolga javob berishga undaydi. Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da'vat etadi. Sintez savollari talabalarga o'zining barcha bilim va tajiibalarini muammoning ijodiy yechilishida foydalanishga imkon beradi. Sintez savollari muqobil ssenariylar yaratishni ham taqozo qilishi mumkin. Baholash savollari yaxshi va yomon, adolat va adolatsizlik to'g'risida hukm chiqarish uchun beriladi. Baholash savollari talabalarga, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o'z munosabatini baholay olish hamda ularni qadrlay olishi uchun beriladi.

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish» (TFRUOVYO) loyihasida quyidagicha ta'kidlanadi: Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam

bu g‘oyalarni dastlab ma’lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtayi nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtayi nazarini ishlab chiqadi. Tanqidiy fikrlash – g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon ham bo‘lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta’sir qiladi, o‘zining shaxsiy qarashlar tizimi bo‘lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo‘ladilar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning quyidagi 4 ta shaklini farqlash kerak:

1. Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to‘g‘risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

2. Izohli idrok etish. Idrokmng bu tipida talabalar g‘oya va hodisalarning o‘zaro aloqalarini yoritishadi, uning mohiyatini muhokama qilishadi, fanning turli sohaiariga oid g‘oya va axborotlarni, hatto tashqi jihatdan bog‘liq hodisalarni biriashtirishadi.

3. Shaxsiy idrok etish. Talabalar o‘zlarida avvaldan mavjud bo‘lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bogliq tushunish jarayonida aks ettiradi.

4. Tanqidiy idrok etish. Mazmunni bir tomonga qo‘yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmati, to‘g‘riligini foydaliligini va talabalarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Albatta, talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda fikrlashning to‘rtta shaklidan foydalanish bilan birga ularda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik vaziyatlar orqali jamiyatimizda bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish bilan belgilanadi.

Talabalar noxush holatlarga qarshi turishlari va ularga qaramasdan o‘z fikrlarini amalga oshirishlari bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ularda tanqidiy fikrlashni paydo bo‘lishini aniq sharoitlarini hisobga olib baholashni, har doim individ, shaxs, faoliyat sub’yekti sifatida nimaga qodir ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish, qiyoslash va fikrlash orqali tanqidiy fikrlarni o‘stirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi [3]:

- talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg‘ulotlarda faolligini ta’minlaydi;
- samarali munozaraga chorlaydi;
- talabalarning o‘zlari savollar tuzishlari va uni savol tarzida bera olishlari uchun yordam beradi;
- talabalarga o‘z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi;
- har qanday fikrlarga bo‘lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;
- talabalarda personajlarga bo‘ladigan iztirobni o‘stirishga yordam beradi;
- talabalarga qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;
- talabalarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

Pedagogik texnologiya talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish tizimini amaliyotga tatbiq etish loyihasi sifatida o‘quv jarayonida amalga oshirilgan aniq belgilangan, diagnostik maqsadlarga kafolatlangan erishishga qaratilgan shaxsiy, instrumental va uslubiy vositalarning ajralmas to‘plami va ishlash tartibidir.

Talabalarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

▪samaradorlik, chunki barqaror ishlashni ta’minlaydi, xarajatlarga optimal darajada mos kelishi, rivojlanishini kafolatlaydi, shuningdek, talabalarning aniq maqsadlarga erishishi;

▪boshqarish qobiliyati: diagnostik maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, o‘quv jarayonini loyihalash imkoniyatini o‘z ichiga oladi; bundan tashqari bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzatish uchun vositalar va usullar bo‘yicha o‘zgartirish;

▪strukturaviylik: texnologiya takrorlanadigan o‘quv sikli sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: belgilangan o‘quv maqsadlari, dastlabki diagnostik baholash, talabalar darajasi, ta’lim tartiblari va tuzatishlar to‘plami, operativ fikr-mulohazalar asosida o‘rganish, yakuniy baho, natijalar va yangi maqsadlarni belgilash. Texnologiyaning bunday konstruktiv, ko‘rsatmalarga asoslangan tuzilishi oxir-oqibatda rejalashtirilgan natijalarga erishishga imkon beradi;

▪takrorlanuvchanlik: tuzilish jihatidan texnologiya o‘qituvchi harakatlarining bunday siklik algoritmi, qaysi bir xil turdagi boshqa ta’lim muassasalarida, boshqa fanlar bo‘yicha osongina takrorlanishi mumkin;

▪dolzarbligi: texnologiyadan foydalanishning maqsadga muvofiqligini aks ettiradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko‘ra, bajariladigan tahlilga yaqin turadi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash jarayonini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki hodisa hisoblanadi, u obyektning turli qismlarini, qismlarning o‘zaro bog‘liqligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog‘liqligini, aloqadorligini nazarda tutadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv ta’limning maqsadi talabalarda tanqidiy fikrlash jarayonining yanada rivojlanishi, biror muammoni yechish qobiliyatini o‘stirish, yangi bilimni mustaqil o‘zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko‘rsatishni, ijodkorlik, faollikni nazarda tutadi. Tadqiqiy yondashuvda talabaning o‘quv-bilish faoliyatiga pedagog rag‘batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, bolaning shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlaydi, bola bilan hamkorlik qiladi, uning fikr va qiziqishlarini oldingi o‘ringa qo‘yadi.

Ma’lumotlarni mustaqil qiyosiy tahlil qila bilishga o‘rgatishga doir metod va mashqlar [6]:

“KWHL” metodi. Metodning maqsadi. Mazkur metod talabalarga o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan mavzuni qabul qilish va mavzu yuzasidan bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, talabalarda turli ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida shaxsiy xulosaga kelish imkonini beradi. Bu metod talabalarning qiziqishlari, imkoniyatlari bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishim kerak?

How – qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn – nimani o‘rganib oldim?

Talabalarda tanqidiy tafakkurning shakllanganlik darajalarini rivojlantirish jarayonini tashkil yetishda talabalarning qarashlari, fikrlari, o‘z tanqidiy tahlili natijalari qadrli va qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur hisoblanadi. Talabalarning o‘zlari ham o‘z fikrlarining qadrli ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o‘z fikrlarining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o‘ta muhimligini, shuningdek, tanqidiy fikrlashda katta hissa hisoblanishini tan olishlari kerak.

Xulosalar. Talabalarda tanqidiy tafakkurning shakllanganlik mezonlari jarayoni ularning o‘zaro fikr almashuvini ko‘zda tutadi. Talabaning o‘zaro fikr almashishi ularning bir-biridan o‘rganishdagi o‘rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o‘zlarida yangi tug‘ilgan fikrlarni va g‘oyalarni boshqalarga yetkazish hamda ochib berish talab etiladi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligi quyidagi mezonlarga muvofiq aniqlandi: talabalarning berilgan ma’lumotlarni qidirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga motivatsiyasi, axborot texnologiyalari yordamida tegishli ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, tasniflash qobiliyati, taklif qilingan saytni tanqidiy baholash qobiliyati.

Talabalarning tanqidiy tafakkurini shakllanish darajasini aniqlash eksperimenti natijalariga asoslanib, biz o‘rtacha talabalar auditoriyasi past va o‘rta darajalarda degan xulosaga keldik. Ushbu ko‘rsatkichlar talabalarda axborot texnologiyalari yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning qisman modelini yaratish va sinovdan o‘tkazish zarurligini aniqladi.

Bunday vaziyatni o‘zgartirishning asosiy yo‘nalishlari talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradigan material tufayli o‘quv kursining mazmunini boyitish edi, pedagogik jarayonning o‘quv, rivojlanish, tarbiyaviy va ijodiy funksiyalarini amalga oshirish, o‘quv jarayonida tahlil, umumlashtirish, analogiya, taqqoslash usullaridan faol foydalanish, axborot texnologiyalari yordamida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda talabalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. T., «Iste’dod». 2008, 97-bet.

(2). Yo‘ldosheva J.R. Usmonova S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T., “Fan va texnologiya”, 2008, 123-bet.

(3). Xurramova S M. Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. “Ilm-sarchashmalari”, ilmiy-nazariy, metodik jurnal, Urganch, 8-son, 2024, 77-bet.

(4). Xurramova S M. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari. “Pedagogik mahorat”, ilmiy-nazariy, metodik jurnali, Buxoro, 2024, 8-son, 105-bet.

(5). Xurramova S.M. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalaning nazariy asoslari. “Ta’lim, fan va innovatsiya”, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, T., 2023, 5-son, 102-bet.

(6). Xurramova S.M. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish mohiyati. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”, xalqaro ilmiy-metodik jurnal, T., 2023, 10-son, 270-bet.

Xudayberganov G‘ayrat Quranboyevich (Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARNI ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG‘LAB O‘QITISHNINING O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’limda kreativlikni rivojlantirishda tasviriy san’at va matematika fanlarini abssessial va ordinatal bog‘lab o‘qitishnining o‘rni va ahamiyati bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *shakl, muammo, vaziyat, rasm, dars, kreativ, topshiriq, tushuncha, mantiq, xotira, fikr, kuzatish, ta’lim, bosqich, daraja, xususiyat, talab, faol.*

Худайберганов Гайрат Куранбоевич (старший преподаватель кафедры методики начального образования Ургенчского государственного университета)

РОЛЬ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУК С АБСЦЕССНОЙ И ОРДИНАТАЛЬНОЙ СВЯЗЬЮ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОСТИ

Аннотация. *В статье изложена роль и значение абсцессно-ординального связующего преподавания изобразительного искусства и математики в развитии креативности в начальном образовании.*

Ключевые слова: *форма, проблема, ситуация, картина, урок, креатив, задание, понятие, логика, память, мысль, наблюдение, образование, этап, уровень, характеристика, спрос, активный.*

Khudayberganov Gayrat Kuranboyevich (Senior teacher of the Department of Primary Education Methodology, Urgench State University)

THE ROLE OF SCIENCE TEACHING WITH ABSTCESS AND ORDINAL CONNECTIONS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY

Annotation. *The article describes the role and importance of teaching fine arts and mathematics in the development of creativity in primary education in an abstract and ordinal connection.*

Key words: *form, problem, situation, picture, lesson, creativity, task, concept, logic, memory, thought, observation, education, stage, level, characteristic, demand, active.*

Kirish. Bolalarni maktabda o‘qitishning dastlabki kunidan boshlab, fanlararo aloqani amalga oshirish zarur. O‘qituvchining bu davrdagi eng asosiy vazifalaridan biri–bolalarga xat-savod asoslarini o‘rgatishdir. Shuning uchun ham o‘qituvchilar ona tili, matematika, tasviriy san’at darslarida, dastlab, bolalarni har xil hoshiyalar chizishga, shakllarni farqlashga o‘rgatadilar.

Bu mashqlar qaysi darslarda bajarilmasin, ularning bajarilishi bevosita hisob bilan bog‘lanadi. Masalan, bolalar doiracha, katakcha, tayoqchalar chizib, uni hisoblaydilar yoki bo‘lmasa, hisoblashda bevosita predmetlarning o‘zidan ham foydalanish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilar kreativligini shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

Kreativ fikrlash asta-sekin kreativ jarayonga aylanadi. Materialni tahlil qilish, keys-stadi metodi, muammo va masalani shakllantirish, mustaqil o‘rganish, kuzatish va o‘lchashni amalga oshirish, kreativ yechimni qidirish va tadqiqotchilik tavsifidagi harakatlarni bajarish uchun muammoli vaziyatlar tashkil etiladi. Muammoli ta’lim quyidagi asosiy tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi: muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat. Muammoli ta’limda tayyor bilimlarning o‘qituvchi tomonidan berilishi yoki o‘quvchining mustaqil bilim egallashi izohli-ko‘rgazmali metod yordamida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo‘lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o‘rinli [2].

Material va metodlar. Matematik kreativ fikrlashning shakllanish darajasi, odatda, muayyan turdagi matematik topshiriqlarni bajarganlik orqali belgilanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo yondashuvlar va immersiv virtual modullarni qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat intellektual, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Virtual modullar, masalan, debatlar, treninglar, ishbilarmonlik va rolli o‘yinlar, o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish va ularga kreativ yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi [4].

1. Fanlararo yondashuv. Fanlararo yondashuv kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar, biror-bir masalani turli fanlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish orqali turli xil g‘oyalar va qarashlarni birlashtirishni o‘rganadilar. Masalan, tarix va adabiyotdan olingan bilimlarni san’at va psixo-